

YOSHLAR OROLNI QUTQARADI

Mengliyeva Shahnoza Bahriiddin qizi

Temiz davlat universiteti yuridik fakultetit
Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolani o‘qish orqali siz Orolbo‘yi foijalari haqida ma’lumot, muammoni hal etish borasidagi olib borilayotgan ishlar, yechim va xulosalar haqida ma’lumot olishingiz mumkin.

Kalit so‘z: Orol fojiasi, Yashil makon dasturi, “Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi”, “O‘zbekiston taraqqiyotining 7 yo‘nalishi”.

Hozirgi kundalik tumushda foydalanayotgan barcha buyumlarning har biri o‘z davrining haqiqiy mo‘jizasi sifatida qaralgan. Ayniqsa inson qo‘li bilan yaratilgan vositalar yordamida o‘simliklarni o‘sirish, ko‘p hosil beradigan qilish, yoki yangi navlarni yaratish taqsinga sazovordir. Ammo yildan yilga istemol qilinadigan mahsulotlarga ehtiyoj ortmoqda. Shu sababki ya’ni o‘zlashtirilmagan yerkarni ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadalashmoqda. Buning uchun suv manbayi, daryo va ko‘llar katta ahamiyatga ega.

Ammo suv manbalaridan to‘g‘ri foydalanmaslik turli xil muammolarni keltirib chiqaradi. Suv tanqisligi, daryo ko‘llarning kamayib borishi hatto qurib ketadi. Katta-katta hududlarni cho‘lga aylantirishi mumkin.

Tabiiy muhit holatining inson ta’sirida o‘zgarishi, jonli va jonsiz komponenrlarga ta’sirining kuchayishi mintaqaviy va ummum jahon ekologik muamolarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, shu kabi ta’sirlar natijasida mintaqamizdagি ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan “Orol muammosi” vujudga keldi.

Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan O‘zbekiston Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Asosan Amudaryoning irmiqlari janubiy voha bo‘ylab oqib o‘tadi. Sirdaryo shimolda ko‘roq qisimi Qozog‘iston Respublikasi hududida oqib o‘tadi. Bu ikki daryo ham Orol dengiziga borib quyiladi.

Mamlakatimiz Sobiq SSSRning mustanlakasiga aylandan davrda yurtimizni xomashyo bazsiga aylantirildi. Poliz mahsulotlari ayniqsa, paxta yetishtirishga ko‘pdan ko‘p kuch sarflanildi. Juda katta cho‘l hududlari o‘zlashtirish boshlandi.

1946-yil 5-fevralda SSSR hukumati “1946-1953-yillar O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish rejasi va tadbirlari to‘g‘risidagi” qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan O‘zbekiston paxta monokulturasini uzil-kesil joriy

qilishga qaratilgan edi. Oziq-ovqat ekiladigan yerkirish paxta ekish buyurilgandi. Endilikda xalqni buyuk mashaqatlar va ocharchilik kutmoqda edi.

O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish, irrigatsiya qurilishini kengaytirish, sug‘orish istemalarini takomilashtirish kerak edi. SSSR Ministrler Sovetiining 1956-yil 6-avgustda “Paxta yetishtirishni ko‘paytirish uchun O‘zbekiston SSR va Qozog‘iston SSRdagi Mirzacho‘lning qo‘riq yerlarini sug‘orish to‘g‘risidagi” qaror qabul qilindi. Unda paxta ekildigan maydonlar O‘zbekistonda 200 000, Qozog‘stonda 100 000 hektar Mirzacho‘l hududi o‘zlashtirilganiga tarix guvoh.

Shu tariqa yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga Amudaryo va Sirdaryoning suvi kamaya boshladi. Bu esa Orol dengizining suv sathini kamayib borishi va bora-bora uning hudidi cho‘lga aylanishiga olib keldi. Orol dengizida yashovchi baliqlar va boshqa jonivorlar soni keskin kamayib ketdi va ko‘pchiligi nobut bo‘ldi. Amudaryoning quyi oqimidagi baliqchilik, mo‘ynachilik, ovchilik xo‘jaliklari yo‘q bo‘lib ketdi.

Orol dengizidan sug‘orish ishlari noto‘g‘ri foydalanish oqibatida uning suvlari qurib, tuproqda tuzlar va boshqa minerallarni qoldirdi. Ular nafaqat tuproqni ifloslantirdi, balki shamol bo‘ronlar orqali ko‘tarilib boshqa hududlarga, shu jumladan ekin maydonlariga ham tarqaldi. Bu naffas olish tizimi kasaliklari va saratonning kuchayishiga olib keldi. Orol hajmining o‘zgarishi mahaliy iqlimga ham ta’sir qildi va bo‘ronlarning ko‘payishi, kuchayishiga olib keldi.

Orol bo‘yi mintaqasida vujudga kelgan og‘ir vaziyat xalq ahvolini nihoyatda tang ahvolga solib qo‘ydi. Yosh bolalarning o‘lim soni ortib bormoqda. Majruh tug‘ilga bolalar soni ham ortib, bir yoshgacha bo‘lga bolalar ortasida o‘lim har ming bolaga nisbatan 1980-yildagi 46 nafardan 1986-yilda 72 nafarga yetdi. Ayollarning 60 foizi kamqonlik kasliga chalingan. Orolbo‘yida qorin tifi kasalligi 30 marta, yuqimli sariq kasalligi 7 marta ortdi, ayniqsa, saraton kasalligi ko‘payib ketdi.

Orolbo‘yi mintaqasida vujudga kelgan o‘gir ekologik vaziyatda, ayniqsa, dengizga yaqin bo‘lgan Mo‘ynoq, Chimboy Qo‘ngiroq shaharlari va atrofidagi ovullar aholisi ko‘p aziyat chekdi. Baliqchilik bilan nom chiqargan mo‘ynoqliklarning ko‘pchiligi 10-15 yil ichida ishsiz va nochor ahvolga kelib qoldi. Qiyinchiliklarga qaramasdan o‘z yerlarida qolgan mahaliy aholi murakkab muammolar iskanjasida qoldi.

Oxirgi 40-45 yil mobaynida orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, suv hajmi 10 baravariga qisqarib ketdi. Orol dengizi deyarli “o‘lik” dengizga aylandi. Harakatsiz qolgan kemalarni “kemalar qabristoni” deb atasa ham bo‘ladi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. hektarni tashkil qiladi. Bu yerda har yili atmosfera haosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko‘tariladi.

Orol dengizining suvi turiga tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamlar” barpo etish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida yerlarni o‘zlashtirish, yer maydonlarini tomchilatib sug‘orish tizimini yaratish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, Orolbo‘yi qum ko‘chkilarini kamaytirish ma qsadida Orolning qurigan qismidan havoga zararli changlarni ko‘tarilishini kamaytirish, cho‘l sharoitiga chidamli bo‘lgan saksovullar va ozuqa o‘simgiklari ko‘chatlarini yetishtirish, dengizni qurigan qismini daraxtzor va butazorlarga aylantirish yuzasidan salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston taraqqiyotining 7 yo‘nalishi” belgilandi. Ushbu yo‘nalishlarning oltinchi faoliyatida: global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlandi. Xususan, ekologik tahdidlarning salbiy ta’siri ortib borayotgani qayd etiladi. Orolbo‘yi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish, butunjahon ekolagiya xartiyasini ishlab chiqish masalasiga to‘xtalib o‘tildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston ushbu muammolarni hal qilishni xalqaro ummum jahon tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, 2023-yil 19-sentyabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambiliyasi 78-sessiyasining ummumsiyosiy munozaralari boshlandi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nuqt so‘zlandi.

Ushbu nutqda mamlakatimizdagи qator qilinayotga islohotlar haqida so‘z boradi. Ayniqsa, hozirga vaqtida dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqiyosida uchta inqiroz ya’ni

- ✓ iqlim o‘zgarishi;
- ✓ bioxilma-xillik yo‘qolishi;
- ✓ atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayt etib o‘tdi.

Prezidentimiz Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanib borayotganligini ko‘rsatib o‘tdi.

O‘zbekiston tomonidan Orol fojiyasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida ko‘rilayotgan choralar, mintaqamizdagи iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri va suv bilan ta’milanganlik darajasining kamayishi tendensiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirildi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqamizdagи qabul qilingan “Yashil taraqqiyot dasturi” doirasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yishi qo‘llab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, 2023-yil 15-sentyabrda Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushabe shahrida “Orolni qutqarish xalqaro jamg‘rmasi” a’zo bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi malahat kengashi bo‘lib o‘tdi.

Kun tartibiga muvofiq, Orol dengizi havzasida ekologiya, suv xo‘jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashning dolzARB masalalari yuzasidan fikr almashildi hamda Jamg‘arma doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari mohokama qilindi. Prezidentimiz hozirgi kunda O‘zbekistonda Orolbo‘yidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani aytib o‘tdi.

Darhaqiqat, so‘ngi bir necha yil mobaynida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 millon hektar o‘rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming hektar yashil hududlar barpo etish rejalashtirmoqda. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, ushbu hududlarda bioxilma-xillikni asrash uchun qo‘riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi.

Orol va Orolbo‘yi muammolarini hal qilishda har birimiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz lozim. Masalani yechish uchun to‘rt ta asosiy faoliyat ya’ni:

➤ birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemik ahvoligi yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e’tibor qaratiladi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya xizmatlari darajasini keskin yuqoriga ko‘tarish zarurligi;

➤ ikkinchidan, dengizni qurigan janubiy qirg‘oqlarida sun’iy to‘g‘on qurib, delta ekosistemasini doimiy suvslash yo‘li bilan “Yashil kamar” hosil qilish;

➤ uchinchidan, dengizni o‘zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko‘p miqdorda suv yuborib turish kerakligi.

➤ to‘rtichidan, Orolning qurigan tubida saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko‘chishi, chang ko‘tarilishini oldini olishni oldini oladi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, bugungi kunda yashayotgan har bir fuqarodan atrof muhitga ogohlilik, hushyorlik bilan nazar tashlashi, kelib chiqqan va kelib chiqishi kutilayotgan muammolarga yechim izlashga chaqiramiz. Chunki Orol va Orolbo‘yi fojialari bu butun mintaqadagi barcha xalqlarga ta’luqlidir. Undan kelib chiqadigan zararlar barchaga birdekkir uchun qiladi.

Inson tanasining bir a’zosi ishdan chiqsa boshqalariga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Hatto boshqa a’zolarning ham ishdan chiqishiga olib keladi. Orolbo‘yida yashayotgan, o‘zbek xalqiga qondosh bo‘lib ketgan, yillar davomida barcha qiyinchiliklarni yengishda yelkama yelka turgan qoraqalpoq xalqining boshidan sinovli kunlarni bir tan-u bir jon bo‘lib yengishimiz lozim.

Siz bunda shu hududga borib suvga tashna xalqqa bir qultum suv ulasha olmasiz, ammo uyingizdagagi oqava suvni isrof qilmasdan, ochiq turgan jo‘mrakni yopib qo‘yish

orqali tejalgan suvni unga muhtoj bo‘lgan insonlarga yetib borishda o‘z hissangizni qo‘sningiz mumkin.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan olqilonan foydalanish, uni kelajak avlodga zarar yetkazmasdan yetkazish, jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongi rivojlantirishni nafaqat tabiatni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yukaltilgan vazifa balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizning oldidagia burchi ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Reclaiming the Aral Sea, Scientific American, mart, 2008
3. “arxiv nusxasi“. 31-oktabr 2014-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 5-sentabr 2011-yil.
4. Franz, J. S. & FitzRoy, F. (2006). Child Mortality and Environment in Developing Countries. Population and Environment. 27 (3), 264.